Uzbekistan Airways Apple Pay va Google Pay orqali to‘lovni yo‘lga qo‘ydi

2026 19 May

Sayohatning har bir bosqichida benuqson xizmat ko‘rsatishga intilish Uzbekistan Airways milliy aviakompaniyasining mutlaq ustuvor vazifasidir. Bugun biz O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib ilg‘or raqamli texnologiyalar sari yana bir muhim qadam tashlayapmiz: endi yo‘lovchilarimiz Apple Pay va Google Pay global servislari yordamida to‘lovni amalga oshirishlari mumkin.

Ushbu ommabop to‘lov tizimlarining aviakompaniyaning rasmiy sayti va mobil ilovasida joriy etilishi foydalanuvchilarning xizmatlardan foydalanish tajribasini tubdan o‘zgartiradi. Endi sayohatni rasmiylashtirish uchun bank kartasini qidirish va ma’lumotlarni qo‘lda kiritishga vaqt sarflash shart emas. Tizim tranzaksiyani zudlik bilan amalga oshirishi uchun atigi bir marta tugma bosilishi kifoya, shu bilan birga ilg‘or tokenlashtirish va shifrlash texnologiyalari tufayli mablag‘laringizning mutlaq xavfsizligini ta’minlaydi.

Sizning vaqtingiz – biz qadrlaydigan va qaytarib bo‘lmaydigan bebaho ne’matdir.

Shu bois biz aviachiptalarni band qilish jarayonini tez, qulay va oson bo‘lishi uchun harakat qildik. Endi siz vaqtingizni faqat yorqin taassurotlarga bag‘ishlab, Uzbekistan Airways bilan parvozdan zavqlanishingiz mumkin!